Ilm-fan va sanoat kooperatsiyasi masalalari muhokama qilindi

Fanlar akademiyasi Direktorlar kengashining navbatdagi kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda Fanlar akademiyasi rahbarlari, Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligining direktor o‘rinbosari, bo‘lim boshliqlari hamda ilmiy tashkilotlar direktorlari ishtirok etishdi.



Kun tartibida Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash maqsadida Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi hamda Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlari o’rtasida o’zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish masalalari ko’rib chiqildi. Bunda ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish va mahalliy mahsulotlar ulushini oshirishga alohida urg’u berildi.

Shuningdek, Akademiya tizimidagi ilmiy tashkilotlar va ilmiy xodimlar faoliyatini baholashning zamonaviy mexanizmlari — reyting va KPI (asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari) tizimini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi.

Yig‘ilish yakunida muhokama qilingan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilinib, istiqboldagi vazifalar belgilab olindi.